



# ТАСВИРИЙ САЪНАТ

---

## SURXONDARYO VILOYATIDA CHOLG‘U IJROCHILIGI SAN‘ATINING RIVOJLANISHI

*Nazarov X.A.*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** san‘at, musiqa, madaniyat, cholg‘u, folklor, iste‘dod, g‘ijjak, nay, chang, dutor, qashqar rubobi, afg‘on rubobi.

**Ключевые слова:** искусство, музыка, культура, музыкальные инструменты, фольклор, талант, гиджак, флейта, чанг, дутор, кашкар рубоби, афганский рубоби.

**Key words:** art, music, culture, instrument, folklore, talent, gijjak, pipe, chang, dutor, Kashgar rubobi, Afghan rubobi.

O‘zbekistonning chekka viloyatlaridan bo‘lmish Surxondaryoning markazi Termiz shahrida musiqa bilim yurtining tashkil etilishi XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. 1961-yilda tashkil etilgan musiqa bilim yurtiga Toshkent davlat konservatoriyasining xalq cholg‘u bo‘limining qashqar rubobi bo‘yicha bitirgan buxorolik Muhammadi Islomovich Muhammadiev direktor etib tayinlandi. U musiqa bilim yurtini tashkil etish va iste‘dodli yosh mutaxassislar bilan ta‘minlashda ko‘p mashaqqatlar ilajonbozlik ko‘rsata boshladi. Bunday qiyin vaziyatlarda yosh mutaxassis ustoz Ashot Ivanovich Petrosyans maslahatlariga quloq tutar, uning o‘gitlariga amal qilar edi: - “Sen shahar aylan, ko‘p odam yig‘ilib turgan joylarga rubobing bilan bor va senga qiziqib qaragan kishi kim bo‘lishidan qat’iy nazar unga sozningda chiroyli asarlar chalib ber. Ko‘rsan yosh bo‘lsa o‘zi, kekxa bo‘lsa bolasini yetaklab keladi va natijada sen maqsadingga erishasan”.

Muhammadi Muhammadiev xuddi shunday qildi. Begona shaharda doim o‘z cholg‘usini yonida olib yurdi va birinchi shogirdlarini tasodifan jamoat joylarida uchratdi. U direktorlik vazifasi bilan bir qatorda qashqar rubobi sinfini olib borgan. Surxondaryoda qashqar rubobi sinfini tashkil etgan va uning rivojlanishiga munosib hissasini qo‘shgan mutaxassis pedagog hisoblanadi.



O'sha davrda Termiz musiqa bilim yurtiga yo'llanma orqali kelgan yoki direktor Muhammadi Muhammadiyev tomonidan chaqirtirilgan mutaxassis pedagoglar fortepiano sinfi, xor dirijyorligi, xalq cholg'ularining g'ijjak, nay, chang, dutor va ma'lum vaqt o'tgach rubob prima, bayan sinflarini tashkil etdilar. Shunday mutaxassis pedagoglardan biri Abdurahmon Zavqiyev xalq cholg'ulari orkestri sinfini tashkil etdi va sakkiz yil mobaynida ham naychi mutaxassis, ham orkestr rahbari sifatida faoliyat ko'rsatdi. 1972-yili Toshkent shahrida o'tkazilgan "Marhabo talantlar" festivalida Abdurahmon Zavqiyev rahbarligidagi xalq cholg'ulari orkestri jamoasi faol ishtirok etib faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Keyinchalik Termiz musiqa bilim yurtiga buxorolik g'ijjakchi sozanda, ustoz murabbiy Amin Karimovich Karimov rahbarlik qildi. U ham Termiz musiqa bilim yurtida ijrochilik yo'nalishlarini kengaytirish maqsadida skripka sinfini tashkil etdi. Bu sinfni yosh o'qituvchi Baxromov Farrux Anvarovich boshqardi, ammo sharoit taqozosi bilan qisqa vaqt ichida boshqa shaharga ko'chib ketdi. Natijada skripka sinfi o'z faoliyatini to'xtatdi va Surxondaryo viloyatida bu musiqiy cholg'usi bo'yicha mutaxassislar yetishmasligi mavjud. Bunday eng zarur bo'lgan musiqiy cholg'uning yetishmasligi orkestr sinflarining ijrosi talab darajasida emasligiga sabab bo'lmoqda.

Shunday qiyin vaziyatlarda ham o'z maqsadidan voz kechmagan xalq cholg'ulari orkestrlari sinflarida mehnat qilgan fidoyi murabbiylar mavjud bo'lgan. Masalan, Amin Karimov o'tgan asrning 70-yillarida g'ijjak sinfini yo'lga qo'ygan. Musiqa bilim yurtida xalq cholg'ulari orkestri rahbarligini olib borgan va shu bilan birga Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrida orkestr jamoasini tashkil qilgan. Asli buxorolik bu ustoz murabbiy Surxondaryo musiqa madaniyatiga munosib hissa qo'shgan shaxslardan biri hisoblanadi. U ko'p yillar Surxondaryo viloyati Mannon Uyg'ur nomidagi musiqali drama teatri direktori va orkestr rahbari, qariyb 10 yildan ziyodroq vaqt mobaynida Termiz musiqa bilim yurti direktori vazifasida faoliyat ko'rsatgan.

Surxondaryo viloyatida ilk bor afg'on rubobi sinfining ochilishiga sababchi bo'lgan yana bir ustoz pedagog Klara Abdurasulovna Mardayevadir. Dastlab musiqa bilim yurtida qashqar rubobida tahsil olgan, Toshkent davlat konservatoriyasida esa ustoz murabbiy G'ulomqodir Ergashevdan afg'on rubobi sinfida tahsil oldi.

U talabalik davrida xalq cholg'ulari orkestriga qatnashib, tajribali, jonkuyar ustozi A.I.Petrosyans harakatlarini zimdan kuzatar va ustoz malakasini sinchiklab o'rganib orkestr mashg'ulotlariga kun sayin mehr qo'yardi. U 1978-yilda o'qishni bitirib Termizga qaytdi, afg'on rubobdan birinchi o'qituvchilik faoliyatini va xalq cholg'ulari orkestri sinfini boshqardi. Klara Mardayeva avvaliga bir qator qiyinchiliklarga duch keldi. Orkestr mashg'ulotlari uchun



mo'ljallangan sinfning yo'qligi, ijro uchun muhim sanalgan ba'zi bir sozlarning tanqisligi kabi kamchiliklar yosh pedagogni bir muddatga esankiratib qo'ydi. Ammo u maqsadidan voz kechmadi. Goh ochiq havoda, gohi sport maydonida ochiq darslar tashkil etdi. Orkestrning bas guruhiga rubobchi sozandalarni jalb etish bilan barcha muammolarni hal etdi. Orkestr repertuarini A.I.Petrosyans, M.Liviyev kabi ustozlarining asarlari bilan boyitdi.

Klara Mardayeva talabalik davrlaridanoq juda faol, a'lochi va yaxshi tashkilotchi edi. Uning bu xislatlari pedagogik mahoratida juda asqotdi. Afg'on rubobi sinfini qisqa vaqt ichida yo'lga qo'ydi va ko'p ovozli ansambllar tashkil etdi. Uning shogirdlari viloyatdagi barcha tadbir va konsertlarda o'z asarlari bilan ishtirok etishib olqishlarga sazovor bo'lishgan.

Bir necha shogirdlari Respublika yosh ijrochilar ko'rik-tanlovlarida ishtirok etishgan, oliy dargohlarda o'qishlarini davom ettirish baxtiga muyassar bo'lishgan. Shulardan Hakim Mamatqulov, Abdug'ani Samadov, Adolat Mamatova, Orif Xakimovlar shular jumlasidandir.

Termiz musiqa bilim yurtida xalq cholg'ulari orkestrini boshqargan mutaxassis pedagoglardan yana biri Xo'jamberdiev Xamza Nazarovichdir. U Toshkent davlat konservatoriyasida nay mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olgan, shu bilan birga cholg'ulashtirish va dirijyorlik sir-asrorlarini puxta o'rganganligi bois orkestr sinfini bemalol boshqardi. Orkestrda yaxshi jaranglamagan xalq cholg'ulari ijrosi o'rnini puflama cholg'ular goboy va klarnet bilan to'ldirdi. Shu bilan bir qatorda bir necha asarlarni orkestr imkoniyatini hisobga olgan holda cholg'ularga moslashtirdi shulardan: S.Pirov "Gulshan", "Surxondaryomsan" va boshqalar.

Keyinchalik yana bir malakali mutaxassis ustoz Normurod Mirzayevich Bakarov xalq cholg'ulari sinfini boshqardi. U iste'dodli sozanda, pedagogik mahorati yuksak murabbiy sifatida tanilgan, talabalik davrida O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi D.Zokirov nomli xalq cholg'ulari orkestrida qashqar rubobi sozandasi bo'lib ishlagan.

N.Bakarov orkestr jamoasini kengaytirish va ijro sifatini yaxshilashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Shu sabab avval ishni o'rta qobiliyatli o'quvchilardan kichik orkestr tashkil qilish bilan boshladi, so'ngra katta orkestr ijrochilari safini kengaytirdi. Orkestrga quyi registr ohanglarini beradigan sozlar qo'shdi. N.Bakarov talabalar orkestri ijro sifatini yaxshilash bilan cheklanib qolmadi, balki orkestr repertuarini boyitishga harakat qildi. Q.Komilovning "Yoshlar syuitasi", M.Bafoevning "Bayram marshi" va shunga o'xshash faqat orkestr ijrosi uchun mo'ljallangan asarlar ustida ishlab, madaniyat uylari, musiqa maktablari, musiqa bilim yurti hisobot konsertlarida muvaffaqiyatli chiqishlar qildi.

Termiz musiqa bilim yurti xalq cholg'ulari orkestrining ravnaq topishi uchun bir qancha ustoz o'qituvchilar imkoni yetguncha mehnat qildilar. Ularning



barchasi oliy dargohlarda yetuk mutaxassislar qo'lida ta'lim olishgan tajribali sozandalardir. Baxtiyor Haqberdiev orkestr sozandasi sifatida, Maxmud Gulliyev orkestr rahbari, Adolat Mamatova orkestr rahbari sifatida faoliyat olib borishgan. Ayniqsa, Sabohat Alimova orkestr rahbari bo'lgan yillarda orkestr ijodi yanada gullab yashnadi. "Navro'z sadolari" ko'p ovozli ansambllar va orkestrlar festivalida ishtirok etib, ikki marta uchinchi darajali diplom bilan taqdirlangan.

Ammo shunga qaramay, orkestr rahbarlari doim noqulay vaziyatlarga duch kelishardi. Ba'zan cholg'ularning torlari yetishmasa, ba'zida talab darajasidagi musiqiy cholg'ularning yo'qligi, gohida orkestrning asosiy poydevori sanalmish baslar guruhining kamligi pand berardi. Bu ham yetmagandek, viloyatda musiqiy cholg'ularni ta'mirlovchi ustalarning yo'qligi, bo'lsa ham chang kabi murakkab cholg'ularni ta'mirlay olmasligi va ba'zi cholg'ular simlarini viloyatdan topib bo'lmisligi ahvolni yanada jiddiylashtirardi. Hech kimga sir emas, Surxon vohasi markaz shaharlardan ancha olis hududda joylashgan. Bizdan fidoyilik, izlanish, doimiy ijod kerak bo'ladi va har qanday sharoitda ham markaz hududlar bilan uzilmas aloqada bo'lishimiz lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimizki, xalqimizga cholg'ularimizni targ'ibot qilish uchun yaxshi mutaxassislarga, xalq cholg'ularini ta'mirlash uchun malakali ustalarga ehtiyoj mavjud. Ma'lumingizki, ko'p ovozli orkestrda kontrabas yoki dutor bas cholg'ularining o'rnini hech bir soz ijrosi to'ldira olmaydi. Shu bois xalq cholg'ulari orkestrining ijro sifatini yaxshilash uchun esa sifatli bas cholg'ulari va uning ijrochilari ham bo'lishi zarur.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asaridan.
2. Internet saytlari: O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning "O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" <http://uzavtoyul.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'lishidan <http://uzembassy.kz>
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q T. "Sharq" nashryoti-matbaa konsern bosh tahririyati 1998. -32-bet.
5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 5-6.
6. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. Begmatov S., Mamirov Q., Mansurov A., Karimova D., Ro'ziev I. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – B. 13-17.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada "Surxondaryo viloyatida cholg'u ijrochiligi san'atining rivojlanishi" mavzusi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borildi va yetarlicha ma'lumotlar berildi.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье проведено научное исследование по теме «Развитие исполнительства на музыкальных инструментах в Сурхандарьинской области» и предоставлено достаточно информации.

#### SUMMARY

In this article, scientific research was carried out on the topic "Development of musical instrument performance in Surkhandarya region" and sufficient information was provided.